

**IJTIMOIIY TARMOQLAR AXBOROT MANBAYIMI YOKI
MANIPULYATSIYA QUROLI?**

*Qo'qon davlat universiteti Milliy g'oya va huquq
kafedrasi o'qituvchisi Xudoberdiyev Jamoliddin*

*Qo'qon davlat universiteti talabasi
Bahodirova Nurhayot Bobomurod qizi*

Tel: +998 95 380 02 11

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy jamiyatdagi roli, axborot uzatishdagi imkoniyatlari hamda manipulyatsiya vositasi sifatida tutgan o'рни ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada raqamli kommunikatsiyaning shiddatli rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan axborot muammolari, yolg'on ma'lumotlar oqimi va ijtimoiy ongga ko'rsatilayotgan bosimlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar insoniyat uchun axborot erkinligi maydonini yaratgan bo'lsa-da, ayni paytda manipulyatsiya, soxta yangiliklar va psixologik ta'sirlar manbayiga aylangan. Shu boisdan mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini shakllantirish zaruriyati dolzarb masalaga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, manipulyatsiya, axborot manbayi, mediasavodxonlik, feyk yangiliklar, tanqidiy fikrlash, raqamli madaniyat.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the role of social networks in modern society, their potential for information dissemination and their function as a tool of manipulation. The study examines the problems arising from the rapid development of digital communication, the spread of false information and the increasing pressure on public consciousness. The findings show that while social networks have created a space for information freedom, they have simultaneously become sources of manipulation, fake news and psychological influence. Therefore, the development of media literacy,



critical thinking and information culture has become an urgent necessity in today's world.

Keywords: *Social networks, manipulation, information source, media literacy, fake news, critical thinking, digital culture.*

Аннотация: *В данной статье научно анализируется роль социальных сетей в современном обществе, их возможности в передаче информации, а также их функция как инструмента манипуляции. Рассматриваются проблемы, возникающие в результате стремительного развития цифровой коммуникации, потоки ложной информации и давление, оказываемое на общественное сознание. Результаты исследования показывают, что, несмотря на то что социальные сети создали пространство информационной свободы для человечества, они одновременно стали источником манипуляций, фейковых новостей и психологического воздействия. В связи с этим необходимость формирования медиаграмотности, критического мышления и информационной культуры становится одной из самых актуальных задач современности.*

Ключевые слова: *Социальные сети, манипуляция, источник информации, медиаграмотность, фейковые новости, критическое мышление, цифровая культура.*

XXI asr - axborot va texnologiyalar asri sifatida butun dunyoda jamiyat taraqqiyotining yo'nalishini belgilab bermoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi insonlarning muloqot qilish, o'rganish va fikr almashish tarzini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda millionlab insonlar uchun nafaqat axborot olish vositasi, balki ularning dunyoqarashini shakllantiruvchi kuchli mexanizmga aylangan.

Biroq bu jarayonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, xavfli tomonlari ham yo'q emas. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan soxta yangiliklar, manipulyatsion postlar, sun'iy yo'l bilan shakllantirilgan jamoviy fikrlar ko'plab ijtimoiy – siyosiy muammolarga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun



bugungi kunda “Ijtimoiy tarmoqlar – axborot manbayimi yoki manipulyatsiya quroli?” degan savol har qachongidan ham dolzarb bo’lib turibdi.

Ijtimoiy tarmoqlar – bu global tarmoq orqali insonlarning o’zaro aloqasini ta’minlovchi, yangiliklarni tezkor uzatish imkonini beruvchi platformalardir. Masalan, “Facebook”, “Instagram”, “Telegram” kabi tarmoqlar bugungi kunda dunyo axborot oqimining asosiy kanallaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning afzalligi shundaki, u an’anaviy OAVdan farqli ravishda axborotni bir markazdan emas, balki har bir foydalanuvchi orqali tarqatish imkonini beradi. Bu esa demokratik axborot almashinuvini ta’minlaydi. Odamlar o’z fikrlarini erkin bildiradi, o’z tajribalari va kuzatuvlari bilan bo’lishadi. Shu ma’noda, ijtimoiy tarmoqlar axborot erkinligining timsoli sifatida ko’riladi.

Ammo bu erkinlik nazorat mexanizmlarining yo’qligi tufayli ba’zida noto’g’ri yo’nalishga buriladi. Har kim o’z fikrini haqiqat sifatida taqdim etadi, natijada haqiqat va yolg’on o’rtasidagi chegara yo’qoladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda manipulyatsiya – bu insonning ongiga bilvosita ta’sir o’tkazish orqali uning fikrini, qarorini yoki harakatini boshqarish jarayoni. Bu holat bir necha usul orqali amalga oshiriladi:

1. Soxta yangiliklar (fake news) – haqiqatga to’g’ri kelmaydigan, lekin ishonarli tarzda taqdim etiladigan ma’lumotlar;
2. Algoritmik manipulyatsiya – foydalanuvchiga faqat uning qarashlariga mos ma’lumotlarni ko’rsatish orqali uning dunyoqarashini toraytirish;
3. Psixologik ta’sir – emotsional, milliy, diniy yoki siyosiy mavzularni ataylab kuchaytirish orqali jamoaviy fikrni boshqarish.

Misol tariqasida, turli siyosiy kompaniyalar, reklama yoki ijtimoiy harakatlar vaqtida manipulyatsion postlarning ko’payishi bunga yorqin dalildir. 2016-yil AQSh prezidentlik saylovlari chog’ida “Cambridge Analytica” hodisasi bu holatning eng mashhur misoliga aylangan edi. Bu kompaniya ijtimoiy



tarmoqlardan olingan foydalanuvchi ma'lumotlari orqali ularning siyosiy qarashlariga ta'sir o'tkazgan.

Soxta axborot va manipulyatsiya sharoitida mediasavodxonlik insonning eng muhim himoya vositasiga aylanadi. Mediasavodxonlik – bu shunchaki axborotni o'qish yoki eshitish emas, balki uni tahlil qilish, baholash, manbani tekshirish xulosaga kelish qobiliyatidir.

Yoshlar orasida mediasavodxonlikni oshirish – ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'sirlarini kamaytirishning eng samarali yo'lidir. Ta'lim tizimida axborot madaniyati fanlarini joriy etish, o'qituvchilar va talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, jamoat axborot markazlarida trening va seminarlar o'tkazish – bularning barchasi jamiyatning axborot immunitetini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tomonlarini ham inkor etib bo'lmaydi. Ular:

- Tezkor axborot almashinuvini ta'minlaydi;
- Jamoatchilik fikrini erkin ifoda etish imkonini beradi;
- Ta'lim va madaniyat sohasida onlayn loyihalarni rivojlantiradi;
- Ijtimoiy birdamlik va fuqarolik faolligini oshiradi.

Masalan, tabiiy ofatlar, pandemiya yoki global muammolar paytida ijtimoiy tarmoqlar aholiga zarur ma'lumotlarni yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi jamiyat ijtimoiy tarmoqlarsiz hayotni tasavvur qila olmaydi. Ammo bu platformalar inson tafakkuriga chuqur ta'sir ko'rsatadigan qudratli mexanizmdir. Shuning uchun davlat siyosati, ta'lim tizimi va OAVlar mediasavodxonlikni strategik ustuvor yo'nalish sifatida qarashlari lozim. Chunki ongni himoya qilmagan jamiyat hech qachon erkin bo'la olmaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar ikki qirrali quroldir. Ular bir tomondan insoniyatni axborot bilan boyitadi, ikkinchi tomondan esa noto'g'ri ma'lumot va manipulyatsiya orqali ongni boshqarishi mumkin. Shunday ekan, ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va mediasavodxonlikni ommalashtirish har bir fuqaroning ma'naviy burchidir.



Bugungi kunda axborotni to'g'ri qabul qilish va uni tahlil qilish qobiliyati – insonni emas, butun jamiyatni himoya qiluvchi kuchdir. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar insoniyat qo'lida foydali manbaga aylanishi yoki xavfli qurol bo'lishi – bu ularni qanday ishlatishimizga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yoshlarni raqamli texnologiyalar va mediasavodxonlik ruhida tarbiyalash” haqidagi chiqishlari.
2. “Axborotning xavfsizligi va mediasavodxonlik” o'quv qo'llanmasi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2022.
3. Castells M. (2009). Communication Power. Oxford University Press.
4. Boyd D. (2014). It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens. Yale University Press.
5. Silverman C. (2016). Verification Handbook: A Definitive Guide to Verifying Digital Content for Emergency Coverage. European Journalism Centre.
6. Jenkins H. (2016). Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. New York University Press.